

PAPER

FARG‘ONA VILOYATIDA DASTLABKI KUTUBXONALARNING TASHKIL ETILISHI VA ULARNING FAOLIYATI (1917–1991)

Mahmudova Madinabonu Hasanjon qizi ¹

¹ Tadqiqotchi

* mahmudovamadinabonu@gmail.com

Abstract

Ushbu maqola 1917–1991 yillarda Farg‘ona viloyatidagi dastlabki kutubxonalar faoliyatini arxiv hujjatlari, statistik to‘plamlar, mahalliy, xorijiy manbalar, davriy matbuot materiallari asosida ochib berishdan iborat.

Key words: ommaviy kutubxonalar, bibliografiya, shahar abonementi, harbiy okrug kutubxonalari, fond.

KIRISH

Dunyoda kutubxonalar ma’naviyatli insonlarni tarbiyalashda asosiy muassasa bo‘lib xizmat qiladi. Ular aholining madaniy, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy dunyoqarashi kengayishida katta ta’sirga ega. Kutubxona assotsiyasilarini va muassasalarini Xalqaro Federatsiyasi (IFLA) ma’lumotiga ko‘ra, dunyoda 569 mingdan ortiq kutubxonalar faoliyat yuritmoqda.

Farg‘ona viloyati kutubxonalari turlari: jamoat va shaxsiy kutubxonalar, qizil choyxonalar qoshidagi kutubxonalar, harbiy okrug kutubxonalari kabi bir necha turlarga bo‘lingan. Shuningdek, ularning tuzilishi, ularda jamlangan kitoblar hajmi, mazmuni yoritilishi, ushbu muassasalarning aholi hayotida tutgan muhim o‘rni turlicha farq qilgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI

Farg‘ona viloyati kutubxonalarining tashkil etilishi, faoliyati o‘tgan davr mobaynida qator tadqiqotchilar tomonidan o‘rganilgan. Lekin bu tadqiqotchilar masala talqinida umumiy jihatlarni e’tiborga olganlar. Ushbu muammo hududiy kesimda, kompleks tarzda kam o‘rganilgan. Shu boisdan, o‘rganilayotgan muammo bo‘yicha mavjud tadqiqotlarni tarixshunoslik jihatidan tavsiflashda quyidagicha davrlashtirish maqsadga muvofiqdir. Jumladan, birinchi guruh sovet davri ilmiy adabiyotlaridan,

ikkinchisi mustaqillik yillarida yaratilgan asarlardan iborat. Uchunchi guruhni xorijiy tadqiqotlar tashkil etadi.

Maqolaga doir izlanishlar sovet hokimiyati yillarida bir yoqlama o‘rganilgan. Xususan, hukmron mafkura g‘oyalari asosida tahlil etilgan bo‘lib, alohida tadqiqot obyekti sifatida o‘rganilmagan. O‘rganilayotgan mavzuga doir adabiyotlarning ikkinchi guruhini mustaqillik davrida chop etilgan ishlar va dissertatsiyalar tashkil etadi. Ushbu davr tadqiqotlarida, masalan Sh.Ziyodovning doktorlik dissertatsiyasi va maqolalarida kutubxonalar haqida ma’lumotlar bergan. Uchinchi guruh adabiyotlarini xorijiy mualliflar tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlar tashkil etadi.

NATIJALAR

Farg‘ona vodiysidagi eng dastlabki kutubxonalardan biri bu Ahmad al-Farg‘oniy nomidagi viloyat markaziy kutubxonasi hisoblanadi. U 1899–yilda, ulug‘ rus shoiri A.S.Pushkin tavallud topgan kunining 100 yilligi nishonlanayotgan kunlarda, xalq muzeyi bo‘limi sifatida ochilgan bo‘lib, unga Yangi Marg‘ilon shahar kutubxonasi deb nom berilgan. U vaqtda kutubxona jamg‘armasi 853 nusxadagi kitoblardan tashkil topgan bo‘lib, kitobxonlar doirasi faqat shahar ziyolilaridan iborat bo‘lgan. 1931–yilda qaytadan o‘zbek bo‘limi ochildi. 1933–yilda bolalar bo‘limi tashkil etildi. 1935–yilning 1–oktyabr holatiga kutubxonaning

kitob fondi 25030 nusxa adabiyotni tashkil etdi. 1939-yilda esa shahar kutubxonasi negizida viloyat kutubxonasi tashkil topdi, natijada kutubxonaga bo'lgan talablar ham ortdi. 1941-yildan boshlab bibliograf Z.V. Konchalovskaya tomonidan ko'p sonli kitobxonlar so'rovini inobatga olib, mavzuli kartoteka tashkil etildi. Kartotekada urush davri qonun va qarorlari, urush nogironlari va harbiy xizmatchilarni ijtimoiy ta'minlash kabi mavzular alohida ko'rsatib o'tildi.

1956-yildan boshlab Farg'ona viloyati tarixi, iqtisodi, madaniyati va atoqli arboblari hayotiga oid o'lkashunoslik materiallarini yig'ish bo'yicha faol harakatlar boshlandi va hozirda 1500000 dan ziyod noyob axborot kartochkalariga ega o'lkashunoslik kartotekasi tashkil etildi.

1970-yil kutubxona hayoti uchun muhim sanalardan biri bo'ldi: 500 ming nusxaga mo'ljallangan uch qavatli maxsus jihozlangan va har tomonlama qulay binoga ko'chib o'tdi. Bino ichida kitobxonlar uchun 400 o'rinli 6 ta ixtisoslashtirilgan o'quv zali, tadbirlar zali, shahar abonementi, bibliografiya, uslubiyat, adabiyotlarni komplektlash va ishlov berish, kitoblarni saqlash bo'limlari joylashgan. Kutubxona tarixiga 1977-yil og'ir davr bo'lib kirdi. Bu yili shaharda bo'lib o'tgan sel ofati oqibatida kutubxonaning eng pastki qavatida joylashgan kitob saqlash bo'limi suv ostida qoldi.

Navbatdagi qadimiy kutubxonalardan biri bu Qo'qon Pedagogika universiteti kutubxonasi hisoblanadi. Institut kutubxonasi ham ommaviy va siyosiy ishlar markazlaridan biri bo'lib, 1938-yilda tashkil topgan. 1942-yilda uning kitob fondida 14348 nusxa turli kitoblar mavud edi. Institut shahar markazidagi zamonaviy o'quv binosida joylashgan. Unda eng yangi o'quv qurollari bilan jihozlangan kompyuterlar va displeylar texnikalariga ega bo'lgan 35 ta yangi o'quv kabinetlari va laboratoriyalar ishlab turibdi. Jami 2535 jild kitobga ega bo'lgan kutubxona va katta o'quv zali doimo talabar bilan gavjum. Oliy bilimgo'ha ko'p millatli bo'lib unda 19 ta millat vakillari bahamjihat ishlamoqdalar. 1958-yilda viloyat va respublikada kutubxonalar tarmog'i kengayib borishi va ularda ishlovchi mutaxassis kadrlarga bo'lgan ehtiyojni hisobga olib, institutda kutubxonachilik fakultetini ochildi. Mazkur fakultetga E.A.Sadovnikov dekanlik qildi. Kutubxonashunoslik bo'yicha maxsus fanlarni katta o'qituvchi V.G.Graneniy, N.E. Sadovnikova, o'qituvchilardan T.Saidboevlar olib bordilar. Mazkur fakultet 1963-yilgacha faoliyat ko'rsatib, 300ga yaqin oliy ma'lumotli kutubxonachilar va bibliografiya bo'yicha mutaxassis tayyorlab berdi. Shu bilan birga institutda barakali ilmiy ishlar qilish, san'at va sport bilan shug'ullanish uchun ham sharoitlar yaratib berildi. Institut kutubxonasi uchun bir yil ichida (1990) jami 200 kvadrat metrdan iborat qo'shimcha ikki qavatli bino qurilib foydalanishga topshirildi. Bu qurilish asosan institut ichki harajatlari uchun belgilangan maoshni tejash hisobiga qurildi.

Farg'ona tibbiy jamiyati kutubxonasi; Turkistonning ilmiy jamiyatlari qisqaa vaqt ichida o'lkani o'rganish sohasida asosiy o'rinni egalladi. Jamiyatlarning kutubxonalari rus fani va madaniyatining yutuqlarini targ'ib qilish, tabiiy boyliklarni o'rganish, bepoyon Turkiston o'lkasi aholisining hayoti va turmush tarzi bilan tanishtirish sohasida katta ishlar qildi. Bu kutubxonalarning kitoblari asosan jamiyat a'zolaridan olingan ilmiy mazmundagi kitoblardan iborat edi. Farg'ona tibbiy jamiyati (1892-1910) Turkiston o'lkasidagi dastlabki ilmiy-tibbiy jamiyatlardan biri bo'lib, u o'zi ish boshlagan kunlaridanoq kutubxona tashkil etishga harakat qildi. 1904-yilning boshlariga kelib, uning kutubxonasidan kitoblar, risolalar, ilmiy asarlar 1155 taga yetdi, shu jumladan, rus va xorijiy tibbiyot oynomalari va ro'znomalarining bir necha yilga oid 40 ta majmuasi bor edi. O'quv yurtlaridagi kutubxonalar kitoblar bilan qanday to'ldirilganligi va ularning soni qancha bo'lganligi to'g'risida deyarli ma'lumot yo'q. Ayrim o'quv yurtlari, gimnaziyalar huzuridagi bir necha kutubxona to'g'risidagina juda ozgina va uzuq-yuluq ma'lumotlar saqlangan. Chunonchi, 1876-yilda

Toshkentda o'g'il bolalar uchun to'rt sinfli gimnaziya ochildi. 1879-1880 yildan boshlab u olti sinfli gimnaziya aylantirildi. 1883-yilda Toshkentdagi bu gimnaziya 8 ta sinf bor edi. Gimnaziya huzurida kutubxona bo'lib, u asosiy kutubxona va o'quvchilar kutubxonasiga bo'lingan edi. Asosiy kutubxonada 4294 nomda 8651 jild, ikkinchisida ozroq: 1697 nomda 3767 jild kitob bor edi.

Marg'ilon shahar kutubxonasi: 1906-yilda Marg'ilon shahridagi mahalliy sotsial-demokratik guruh ham nolegal adabiyotga ega bo'lgan kutubxona tashkil etgan. Kutubxona yashirin holda ishlardi. Chinakam inqilobchilar va sotsial-demokratlar xususiy nolegal kutubxonalariga ega edilar. Toshkentda bolshevik Pyotr Serebryakov, sotsial-demokratlar I.S. Lavochkin, R.I. Bitsafevich va boshqalar ana shunday kishilar jumlasiga kiradi. Samarqandda bolshevik M.V. Morozov va sotsial-demokrat G.N. Klimenko ijtimoiy-siyosiy kitoblarni o'z ichiga olgan kutubxonalariga ega edilar. Nolegal jamoat va xususiy kutubxonalarning mavjudligi marksistik kitoblar, risolalar, xitobnomalar va inqilobiy qo'shiqlarning yoyilishiga yordam berdi. Inqilobdan ilgari Turkistonning kutubxonachilik ishida-eng jiddiy nuqsonlardan biri o'lkadagi tub yerli aholi uchun zamonaviy kutubxonalarning deyarli bo'lmaganligidir. Madrasalarning uncha ko'p bo'lmagan kutubxonalari madrasa talablariga (mullavachchalarga) xizmat qilgan, xolos. Odatda, mahalliy aholi orasidan chiqqan madaniy kishilar o'zlarining kichkina kutubxonalariga ega bo'lib, bu kutubxonalarda asosan Eron, Xindiston va O'rta Osiyoda bitilgan qo'lyozma, litografiyada bosilgan kitoblar ko'p bo'lar edi. Shunday qilib, 1917-yilga kelib Turkiston hududida rus aholisi uchun ikkita xalq kutubxonasi, bir nechta shahar kutubxonasi, bir qancha ilmiy va jamoat tashkilotlari kutubxonalari, maktablar, harbiy qismlar qoshidagi kutubxonalar va xususiy kutubxonalar mavjud edi. Mahalliy aholi vakillari milliy yo'nalishdagi ikkita kutubxonadan va madrasalar huzuridagi o'quv-diniy kutubxonalardan foydalanardi.

MUHOKAMA

Kutubxonachilik tarixi o'lkaning tarixiy va iqtisodiy taraqqiyoti bilan chambarchas bog'liqdir. O'rta Osiyoning tabiiy boyliklari, tarixi va jo'g'rofiyasini o'rganish sohasida keng ko'lamda ish olib borgan ilmiy jamiyatlar birinchi bo'lib kutubxonalar tashkil eta boshladilar, bu kutubxonalar aholi o'rtasida ilm-fanni targ'ib qilishda ma'lum darajada yordam berdi. Xalq ta'limining birmuncha rivojlanishi o'quv yurtlari kutubxonalarining tashkil etilishiga turtki berdi. XX asrning boshlarida inqilobiy demokratik va ilg'or qarashlarning yoyilishi shaharlarda xususiy va jamoat kutubxonalarining tashkil etilishiga sabab bo'ldi, kapitalistik munosabatlarning joriy etilishiga, ishchilar sinfining o'sishiga, ishchilar va xalq kutubxonalarining tashkil topishiga olib keldi.

Yana shuni ta'kidlash kerakki, Rossiya ilmiy jamiyatlaridan Turkiston o'lkasini o'rganish uchun kelgan geolog, geograf, etnograf, etnolog, o'lkashunos, sharqshunos olimlar to'plagan ma'lumotlar asosidagi bosma nashrlar, boshqa turdagi kitoblar soni ortgan. Eng asosiysi, imperiya o'lkadagi boshqaruv ma'murlari, harbiylari va ularning yaqinlarini kitobga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish maqsadida Farg'ona viloyat kutubxonalari va shaharlardagi mahalliy ommaviy kutubxonalar tashkil etgani asoslangan.

XULOSA

Xulosa qilinganda, 1917-1991 yillarda Farg'ona vodiysida ko'plab kutubxonalar tashkil etilgan bo'lib, o'lkada xalqlari ma'naviy xayotida kitob va kutubxonalarning o'rni va tarbiyaviy axamiyati beqiyos bo'lgan. Ushbu tashkil etilgan kutubxonalar aholi ijtimoiy-siyosiy hayotida nafaqat ma'lumot manbai, balki,

g'oyaviy kommunikativ axamiyati yuqori bo'lib keldi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O. G'. Qosimova. O'zbekistonda kutubxonachilik ishi tarixi. O'quv qo'llanma. Toshkent, «O'qituvchi» nashriyoti, 1981.67-72-betlar.
2. A. L. Kun. Koran Osmana. Gaz. «Turkestanskije Vedomosti», 1870, 22-betlar Ikromjonovna, J. S. (2024).
3. SOYIBNAZAR DAVLATOV KUTUBXONACHILIK ISHI TARIXI (Kutubxonashunoslik va axborot tizimlari ta'lim yo'nalishi talabalari uchun o'quv qo'llanma) 133-134.
4. Ahmad Farg'oniy nomidagi viloyat axborot-kutubxona markazi tarixi. Qo'llanma, 2021.- 5-bet.
5. X.Mavlonqulov.G'.Toshpo'latov L.Zohirov. Yuksalish odimlari.(Qo'qon davlat pedagogika instituti 60 yilligi tarixidan).1992- 15 bet
6. X.Olimjonov . Turkistonda kutubxona ishi tarixi 1870-1917. Avtoreferat.-Toshkent, 2022. – 12 bet
7. Mahmudova M. O'zbekistonda sovet hokimiyatining qaror topish davrida kutubxonalar (1917-1941 yillar)" mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konfrensiyasining materiallari. - Farg'ona FarDU. 2025-B.
8. Mahmudova M. Ahmad al-Farg'oniy nomidagi Farg'ona viloyati axborot-kutubxonasining tashkil etilishi va faoliyati. – Qo'qon. QDU Ilmiy xabarlar jurnali. - 2025.
9. www.arxiv.uz